

“O‘zmetkombinat” AJ  
Kuzatuv kengashi qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
(2024 yil \_\_-\_\_dagi \_\_-son bayonnomma)

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ  
KUZATUV KENGASHINING  
XILMA-XILLIK SIYOSATI

Bekobod, 2024-yil

## **Mundarija**

Mundarija .....	2
1. Kirish.....	3
1.1. Siyosat maqsadlari .....	3
1.2. Siyosat qamrovi .....	3
1.3. Asosiy xalqaro qo‘llanmalar va standartlar, milliy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar.....	4
1.4. Siyosatning asosiy tamoyillari .....	4
2. Vazifa va majburiyatlar.....	5
2.1. Vazifa va majburiyatlar.....	5
2.2. Siyosat amalga oshirilishini nazorat qilish jarayoni .....	5
3. Kuzatuv kengashi tarkibining xilma-xilligi.....	6
3.1. Kuzatuv kengashining turfa xilligi omillari .....	6
3.2. Kuzatuv kengashining mustaqilligi.....	6
3.3. Rejalashtirish .....	8
4. Yakunlovchi qoidalar .....	8
4.1. Hujjatni tasdiqlash, uning kuchga kirishi va o‘zgartirishlar kiritish .....	8
4.2. Hujjatni manfaatdor tomonlarga yetkazish .....	8
5. Yuzaga keladigan savollar bo‘yicha aloqa ma’lumotlari .....	9

## **1. Kirish**

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o‘rinlarda - “O‘zmetkombinat” AJ) o‘z faoliyatini Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq ekologik va ijtimoiy mas’uliyat, mehnat huquqlari va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillari asosida, Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” Milliy strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi 83-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari, shuningdek, Kompaniyaning bir qator ichki siyosati va hujjaligiga muvofiq amalga oshiradi.

Korporativ boshqaruvgaga yondashuv “O‘zmetkombinat” AJning O‘zbekistonning yetakchi zamонавиyy metallurgiya kompaniyasi va butun dunyo bo‘ylab ishonchli hamkor sifatidagi mavqeini aks ettiradi. “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining teng huquqliligi va xilma-xilligi tamoyillarini korporativ boshqaruvgan amaliyotiga joriy qilmoqda. Kompaniya Kuzatuv kengashining faoliyati samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlari va Kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish uchun uning xilma-xilligi afzalliklarini tan oladi.

### **1.1. Siyosat maqsadlari**

Ushbu “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining xilma-xillik siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibidagi turfa xillik va tenglikni ta’minlashga yondashuvini belgilaydi.

### **1.2. Siyosat qamrovi**

Siyosat “O‘zmetkombinat” AJ va uning tarkibidagi barcha tashkilotlarga, shu jumladan, shu‘ba korxonalar, qo‘shma korxonalar va filiallarga nisbatan qo‘llaniladi. Siyosat Kompaniya va uning tarkibidagi tashkilotlar xodimlari turfa xilligiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Ushbu Siyosat “O‘zmetkombinat” AJning Kompaniyaning korporativ boshqaruvgiga bo‘lgan yondashuvining ajralmas qismi hisoblanadi va Kompaniyaning boshqa ichki normativ hujjalari kontekstida ko‘rib chiqiladi, jumladan:

- a) “O‘zmetkombinat” AJ ustavi;
- b) “O‘zmetkombinat” AJning Ish etikasi kodeksi;
- c) “O‘zmetkombinat” AJ xodimlari odob-axloq qoidalari;
- d) “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizom;

e) “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining mehnatga haq to‘lash va tayinlov qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomi;

f) “O‘zmetkombinat” AJning turfa xilligi va inklyuzivlik siyosati.

1.3. Asosiy xalqaro qo‘llanmalar va standartlar, milliy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar

Siyosatni ishlab chiqishda tegishli xalqaro qo‘llanmalar va standartlar, kuzatuv kengashlari va/yoki direktorlar kengashlari faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or tarmoq amaliyoti, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari hisobga olindi, jumladan:

- a) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- b) BMT inson huquqlari bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatidagi asosiy tamoyillari;
- c) Xalqaro Mehnat Tashkilotining (keyingi o‘rinlarda - XMT) “Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillari va huquqlari” deklaratsiyasi;
- d) XMTning 111-sonli “Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to‘g‘risida” konvensiyasi, 135-sonli “Korxonalarda mehnatkashlar vakillarining huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan imkoniyatlar to‘g‘risida” konvensiyasi;
- e) IHTT davlat korxonalarida korporativ boshqaruv bo‘yicha ko‘rsatmalari;
- f) Integratsiyalashgan korporativ boshqaruv: Butunjahon iqtisodiy forumi amaliy qo‘llanmasi;
- g) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni;
- h) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015 yildagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
- i) Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi 31.12.2015 yildagi 9-sonli yig‘ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi;
- j) Davlat aktivlari agentligining 23.06.2023 yildagi 145-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari;
- k) “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag‘i to‘g‘risidagi nizomi;
- l) Birlashgan Qirollikning Moliyaviy boshqaruv nazorati bo‘yicha qo‘llanmasi.

#### 1.4. Siyosatning asosiy tamoyillari

Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibidagi xilma-xillikni “O‘zmetkombinat” AJ barqaror rivojlanish maqsadlari va strategik maqsadlariga erishishning asosiy omili sifatida baholaydi.

Jamiyat tomonidan Kuzatuv kengashiga nomzodlarni kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishda turfa xillik va tenglikning muhimligi e’tiborga olinadi. Jamiyat aktsiyadorlarining “O‘zmetkombinat” AJ Ustavida, shuningdek, amaldagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan huquqlarini hisobga olgan holda, Kuzatuv kengashiga nomzodlar meritokratik tamoyillar asosida tanlanadi: nomzodlarni tanlash kuzatuv kengashi tarkibidagi xilma-xillikning ijobiliy ta’sirini hisobga olgan holda obyektiv mezonlar asosida amalga oshiriladi.

## **2. Vazifa va majburiyatlar**

### **2.1. Vazifa va majburiyatlar**

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining Ish haqi va tayinlov qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda Ish haqi va tayinlov qo‘mitasi deb yuritiladi) ushbu Siyosat bo‘yicha umumiyligi javobgarlikni, Kuzatuv kengashiga tayinlangan barcha nomzodlarning kasbiy malakasi va mustaqilligini tahlil qilishni, Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlarni saylash masalasi bo‘yicha ovoz berish bo‘yicha aksiyadorlarga tavsiyalar shakllantirishni, shuningdek uning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmasiga oladi. Ish haqi va tayinlov qo‘mitasi, shuningdek, Kuzatuv kengashi va uning a’zolari faoliyatini har yili baholaydi, Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibini mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, Kuzatuv kengashiga uning ish tartibi va qo‘mitalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, Kuzatuv kengashi tarkibini kasbiy ixtisosligi, tajribasi, mustaqilligi va a’zolarining kuzatuv kengashi ishiga jalb etilishi nuqtai nazaridan baholaydi.

Kuzatuv kengashi tarkibi bo‘yicha qarorni ko‘rib chiqishda belgilangan majburiatlarni samarali bajarish uchun xilma-xillikning barcha jihatlari afzalliklarini hisobga olinadi.

Qo‘mita har yili Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibidagi xilma-xillik tamoyillarining amalda tatbiq etilishini tahlil qiladi va baholaydi.

### **2.2. Siyosat amalga oshirilishini nazorat qilish jarayoni**

Ish haqi va tayinlov qo‘mitasi har yili ushbu Siyosat qoidalarining bajarilishi, uning alohida qoidalari buzilganligi, shuningdek Kuzatuv kengashi va uning a’zolari faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha tahliliy hisobot tayyorlaydi hamda Siyosat qoidalarini amalga oshirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Kompaniyaning kuzatuv kengashi har yili ushbu Siyosat qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha tahliliy hisobotni ko‘rib chiqadi va Siyosat qoidalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida masalalarни hal qilish bo‘yicha maxsus qarorlar qabul qilishi mumkin.

### **3. Kuzatuv kengashi tarkibining xilma-xilligi**

#### **3.1. Kuzatuv kengashining turfa xilligi omillari**

Xilma-xillik va inklyuzivlik kompaniyaga yanada faol bo‘lishga, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga va samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Kuzatuv kengashining tarkibi kompaniya faoliyat yuritadigan sharoitlarning xilma-xilligini aks ettirishi kerak.

Kuzatuv kengashining turfa xilligi Kompaniya muammolari va uni rivojlantirish imkoniyatlari haqida kengroq qarashni taklif qilishi mumkin. Keng miqyosdagi vakolatlar va turli qarashlarga ega bo‘lish ochiq muloqotga chorlaydi va o‘zaro tushunishni yaxshilaydi, g‘arazlilikni kamaytiradi.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlarni tanlash ularning:

- jinsi;
- irqi yoki etnik kelib chiqishi;
- millati, kelib chiqish mamlakati yoki madaniyati;
- yoshi;
- kasbiy tajriba va ko‘nikmalar;
- bilim sohalaridan qat’iy nazar amalga oshiriladi.

Nomzodlarni tahlil qilish va baholashda asosiy e’tibor avvalgi xizmatlari va nomzodning Kuzatuv kengashi ishiga qo‘sishi mumkin bo‘lgan hissasiga e’tibor beriladi. Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash to‘g‘risidagi qaror xolis bo‘lishi hamda Jamiat Ustavi va amaldagi normativ-hujuqiy hujjatlarga, shuningdek, tegishli milliy qonunlar va normativ hujjatlarga, shu jumladan Kuzatuv kengashining tarkibi, tuzilishi va mustaqilligiga oid talablarga muvofiq qabul qilinishi kerak.

#### **3.2. Kuzatuv kengashining mustaqilligi**

Kuzatuv kengashining mustaqilligi mutanosiblik, vazifalarni bajarishda samaradorlik, shuningdek, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatuv kengashida mustaqil direktorlarning mavjudligi turli masalalar bo‘yicha xolis qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi, boshqaruv samaradorligini oshiradi va manfaatdor tomonlar, jumladan, investorlar va aksiyadorlarning ishonchini mustahkamlaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga har yili qayta saylanishi mumkin bo‘lgan kamida bitta mustaqil a’zo bo‘lishi kerak. Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolariga nomzodlar ko‘rsatish va ovoz berish davlat vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

Nomzod Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi etib quyidagi talablarga mos keladigan nomzod saylanishi mumkin:

- so‘nggi besh yil davomida Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlarida ishlagagan bo‘lsa;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlariga maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalarda faoliyat yuritmagan bo‘lsa;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlarida aksiyador, ta’sischi, ishtirokchi, nazorat qiluvchi shaxs, nazoratni amalga oshiradigan shaxslar va/yoki tashkilotlar guruhining a’zosi bo‘lmasa;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlari yirik mijozи va/yoki yirik yetkazib beruvchisi bilan bog‘liq bo‘lmasligi va fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishmagan bo‘lishi kerak;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlari bilan hech qanday kelishuvga ega bo‘lmasligi, bundan Kuzatuv kengashi a’zosining vazifalari va funksiyalarining bajarilishini ta’minalash bilan bog‘liq kelishuvlar mustasno;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlar bilan shaxsiy xizmat ko‘rsatish shartnomalariga ega bo‘lmasligi;
- Kompaniyaning va/yoki uning affillangan tashkilotlarning boshqaruvi va ichki nazorat organlarining a’zosi hisoblanadigan yoki oxirgi besh yil davomida a’zosi bo‘lgan shaxsning turmush o‘rtog‘i, ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingani), qondosh yoki o‘gay aka-ukasi yoki opa-singlisi bo‘lmasligi;
- Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlarda mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan shaxsning turmush o‘rtog‘i, ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingani), qondosh yoki o‘gay aka-ukasi yoki opa-singlisi bo‘lmasligi;
- Kompaniya bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarga kirishmagan va Kompaniyaning yirik aksiyadori yoki yuqori sanoat bo‘limining ishchisi hisoblanmasligi;
- davlat boshqaruvi organi yoki davlat korxonasi ishchisi bo‘lmasligi;
- so‘nggi uch yil davomida Kompaniya va/yoki uning affillangan tashkilotlarga auditorlik xizmatlarini ko‘rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi bo‘lmasligi;
- Jamiyat Kuzatuv kengashida ketma-ket olti yildan ko‘p bo‘lmasligi muddatda ishlagan bo‘lishi;

- Jamiyat ustavida va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlari bilan tasdiqlangan normativ hujjatlarda belgilangan talablarga javob berishi kerak.

### 3.3. Rejalashtirish

Kompaniya Kuzatuv kengashidagi xilma-xillikka oid ilg‘or korporativ boshqaruva amaliyotlarini qo‘llab-quvvatlashga intiladi, Kuzatuv kengashi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi va aksiyadorlarga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritadi.

Manfaatdor tomonlarning ilg‘or tajribalari va kutilmalariga muvofiq, Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zolarining turfa xilligi va teng huquqliligi sohasida o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- Kuzatuv kengashi a’zolari orasida kamida 40%/30% ayollar bo‘lishi;
- Kuzatuv kengashi (Kuzatuv kengashi raisi, Katta mustaqil direktor) / Boshqaruva (Kengash raisi/Moliya direktori) yuqori lavozimlarda kamida 1 nafar ayol bo‘lishi;
- Kuzatuv kengashi a’zolari orasida kamida 1 nafar etnik ozchilik vakili bo‘lishi;
- Kuzatuv kengashi a’zolari orasida mustaqil direktorlarning ko‘rsatkichi kamida 51% bo‘lishi.

Biroq, kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibida bunday xilma-xillik o‘zgarishlar davrida, vaqtinchalik amal qilinmasligi mumkinligini tan oladi, ammo Kompaniyaning uzoq muddatli maqsadi ushbu muvozanatga erishishdir.

## 4. Yakunlovchi qoidalar

### 4.1. Hujjatni tasdiqlash, uning kuchga kirishi va o‘zgartirishlar kiritish

Mazkur Siyosat, shuningdek, unga kiritilgan o‘zgartirishlar “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Siyosat Kompaniyaning veb-saytida e’lon qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.

Siyosat har yili Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan Siyosat qoidalarining dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolish uchun o‘zgartirishlar kiritish zarurligini belgilash uchun ko‘rib chiqilishi kerak.

### 4.2. Hujjatni manfaatdor tomonlarga yetkazish

Siyosat kompaniyaning ichki va tashqi resurslari yordamida barcha xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun mavjuddir. Kompaniyaning yangi xodimlari ishga qabul qilinganda Siyosat bilan tanishtiriladi. Siyosatni xodimlarga va Siyosatda nazarda tutilgan boshqa manfaatdor shaxslarga yetkazish, uni amalga oshirish va ularga rioya qilish majburiyati Kompaniya zimmasiga

yuklanadi. Shuningdek, “O‘zmetkombinat” AJ tarkibiga kiruvchi barcha tashkilotlar mahalliy qonunchilikka zid bo‘lmagan hollarda ushbu Siyosatga muvofiq shikoyatlarni ko‘rib chiqish qoidalari va tartibini joriy etishlari shart.

Ushbu Siyosat Kompaniyaning ajralmas qismi hisoblanadi va Kompaniyaning ish etikasi va mas’uliyatli xatti-harakatlarini tartibga soluvchi siyosatida nazarda tutilgan boshqa tamoyillar va yondashuvlar kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Ushbu Siyosat talablarining buzilishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, shuningdek, Kompaniyaning ichki siyosati va tartib-qoidalari muvofiq jiddiy intizomiy jazo choralar qo‘llanishiga sabab bo‘ladi, bunda huquqbuzarni ishdan bo‘shatish ham nazarda tutilishi mumkin. Yuqoridagi choralar Kompaniyaning barcha xodimlariga, shu jumladan rahbarlar, mansabdor shaxslar, direktorlar, shuningdek pudratchilar, biznes hamkorlar va Kompaniya tomonidan jalb qilingan yoki Kompaniya nomidan xizmatlar ko‘rsatadigan uchinchi shaxslarga nisbatan ham teng darajada qo‘llaniladi.

## **5. Yuzaga keladigan savollar bo‘yicha aloqa ma’lumotlari**

Kompaniya tomonlardan taqdim etiladigan barcha murojaatlarga ochiq. Ushbu Siyosat mazmuni va qo‘llanilishiga doir savollar mutaxassislarga istalgan qulay shaklda, shu jumladan telefon va elektron pochta orqali yuborilishi mumkin.

### **Murojaat uchun aloqa ma’lumotlari:**

- Tel.: 0(370) 213-16-02, 0(370) 213-16-02
- Veb sayt: [www.uzbeksteel.uz](http://www.uzbeksteel.uz)
- E-mail: [info@uzbeksteel.uz](mailto:info@uzbeksteel.uz)
- E-mail: [uzbeksteel@exat.uz](mailto:uzbeksteel@exat.uz)